

VII SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(ogʻzaki nutq, yozma nutq, anglash (oʻqish va tushunish, tinglab tushunish))

Ogʻzaki nutq va tinglab tushunish | 7.OT

Tushunish va muloqot

- 7.OT.1** sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar asosida : turli shakldagi hamkorlik ishlarida samarali ishtirok eta oladi, boshqalarning fikrlariga tayanib oʻz fikrlarini ifoda eta oladi.
- 7.OT.1.a:** kerakli material bir necha kun oldin taqdim qilinganda uni oʻqib, oʻrganib, tayyorlangan muhokamalarda ishtirok eta oladi.
- 7.OT.1.b:** muhokamalarda oldindan kelishilgan shartlarga (navbat bilan soʻzlash, vaqtga amal qilish, mavzudan chiqmaslik) amal qila oladi.
- 7.OT.1.d:** muhokama etilayotgan matn, mavzu, masala yuzasidan berilgan savollarga javob berish maqsadida nutqiga izohlar qoʻsha oladi, oʻzi ham savollar bilan ishtirok eta oladi.
- 7.OT.1.e:** iqtibos keltirish yoki qayta bayon qilish orqali asosiy gʻoyani tushunadi va tushuntirib bera oladi.
- 7.OT.1.f:** turli millat, madaniy qadriyatlarga ega shaxslar bilan muloqot qila oladi.
- 7.OT.2** OAVlarda turli formatlarda (ogʻzaki, vizual, miqdoriy koʻrsatkichga ega) berilgan : maʼlumotni (yosh doirasida) tushuna oladi, ularning mavzuga aloqadorligini sharhlay oladi hamda ular asosida nutq soʻzlay oladi.
- 7.OT.3** soʻzlovchining maqsadi hamda argumentlarini ajrata oladi; dalillar keltirilgan : hamda dalillanmagan maqsadlarni alohida koʻrsata oladi.

Bilim va gʻoyalarni taqdim qilish

- 7.OT.4** nutqi davomida mos ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy til meʼyorlariga amal qila : oladi; auditoriya bilan koʻz aloqasini oʻrnata oladi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tashkillay oladi; tegishli taʼrif, tavsif, fakt hamda tafsilotlardan foydalana oladi.
- 7.OT.5** maʼlumotlarni aniqlashtirish maqsadida taqdimotlariga multimedia komponentlarini : (grafik, surat, musiqa, ovoz kabi) qoʻsha oladi.
- 7.OT.3** turli kontekst va vazifalarga mos nutq yarata oladi; nutqi davomida oʻzbek adabiy : tili meʼyorlariga amal qiladi.

O'qish savodxonligi | 7.O'S

Matnga kirish hamda ma'lumot/mulohazalar bilan ishlash

- 7.O'S.1:** matnlar turidan kelib chiqib ularning maqsadini sanab bera oladi, matn turlarini o'zaro farqlay oladi.
- 7.O'S.2:** matnda (shu jumladan, grafik, diagramma, jadval va boshqa shakllarda ma'lumotlar keltirilgan matnlarda ham) ochiq keltirilgan ma'lumotlarni topa oladi.
- 7.O'S.3:** matnda ochiq aytilgan asosiy g'oyani aniqlay oladi.

Ma'lumot/mulohazalarni talqin qilish va uyg'unlashtirish

- 7.O'S.4:** matndagi tanish so'zlarning kontekstual ma'nosini aniqlay oladi.
- 7.O'S.5:** matnning boshlanishidan (kirish qismidan) kelib chiqib matn nima haqida ekanini taxmin qila oladi.
- 7.O'S.6:** matndagi voqea-hodisalar (harakatlar, qadamlar) ketma-ketligini ajrata oladi.
- 7.O'S.7:** matnda yopiq holatda berilgan ma'lumotlarni (bir gap doirasida berilganda) ajrata oladi.
- 7.O'S.8:** matnda ochiq aytilmagan asosiy g'oyani aniqlay oladi.
- 7.O'S.9:** matnni qismlarga ajrata oladi (kirish, asosiy qism, xulosa).
- 7.O'S.10:** matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqara oladi.

Mulohaza yuritish va baholash

- 7.O'S.11:** matn kimlar uchun mo'ljallanganini (auditoriyani) aniqlaydi hamda matndan dalillar keltira oladi.
- 7.O'S.12:** matndagi ma'lumotlarning fakt hamda fikrga ajrata oladi.
- 7.O'S.13:** matndagi ma'lumotlarning aniq va to'g'riligi, yaroqliligi, xolis va ishonchligiga baho bera oladi.
- 7.O'S.14:** matnning uslubi, tuzilishi va xususiyatlari (rasmlar tanlanishi, so'z va iboralar tanlanishi, grammatika va h.k.) matnning ma'nosiga qay darajada ta'sir qilishini izohlab bera oladi.

Yozma nutq | 7.YN

Matn yaratish

7.YN.1 maqsadni qo'llab-quvvatlovchi dalillarni qo'llagan holda argumentlar yoza oladi.
:

7.YN.1a: maqsad tushuntiradi hamda sabab va dalillarni samarali tartiblay oladi.

7.YN.1b: maqsadni qo'llab-quvvatlash uchun mos so'zlar hamda iboralarni tanlay oladi.

7.YN.1d: ishonchli manbalardan hamda berilgan matndan foydalangan holda maqsadning mos dalillarini matnga kirita oladi.

7.YN.1e: taqdim etilgan argumentdan anglashiladigan xulosani matnga kirita oladi.

7.YN.1f: yosh doirasida yosh doirasida adabiy til me'yorlariga amal qila oladi.

7.YN.2 mavzuni o'rganish, g'oyalarni yetkazish, konsepsiya va ma'lumotlarni tanlash, tahlil qilish maqsadida axboriy, tasviriy hamda izohlovchi matnlarni yoza oladi.
:

7.YN.2a: mavzuni taqdim etadi; ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, sabab-oqibat strategiyalaridan foydalangan holda g'oyalar va tushunchalarni yetkazib bera oladi, tushunishga yordam berishi nuqtayi nazaridan qo'shimcha unsurlar (sarlavha, taglavha, grafik chizmalar)dan foydalana oladi.

7.YN.2b matnni tegishli faktlar, ta'riflar, tafsilotlar, iqtiboslar yoki
: boshqa ma'lumot va misollar bilan boyita oladi.

7.YN.2d g'oya va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqroq
: ko'rsatish uchun mos kirish va kiritmalardan foydalana oladi.

7.YN.2e: taqdim etilgan ma'lumot yoki izohdan kelib chiqadigan xulosaviy qismni matnga kirita oladi.

7.YN.2f: uslubga xos lug'at boyligi hamda gap qurilishidan foydalana oladi.

7.YN.2g yosh doirasida adabiy til me'yorlariga amal qila oladi.
:

7.YN.3 voqea-hodisalar badiiy vositalar bilan boyitilgan hikoyaviy matnlar yarata oladi.
:

7.YN.3a: hikoya qahramonlari, hikoya konteksti bilan tanishtira oladi.

7.YN.3b: qahramonlar xarakterini ochish, voqealarni rivojlantirish maqsadida dialog, tavsif hamda sur'atdan foydalana oladi.

7.YN.3d: voqea-hodisalarning zamoni yoki makoni o'zgarayotganini aks ettira oladi.

7.YN.3e: hikoyaning xulosa qismini yoza oladi..

7.YN.3f: badiiy uslubga xos lug'at boyligi hamda gap qurilishidan foydalana oladi

7.YN.4 auditoriya, maqsad, uslubni hisobga olgan holda turli shakllardagi (axboriy, tasviriy,

: ekspozitsion, argumentli, badiiy) matnlarni yarata oladi.

Matnni tahrirlash va taqdim qilish

- 7.YN.5:** tengdoshlari, kattalarning ko'rsatmalari hamda yordami bilan qoralama yozish, tahrir qilish, qayta yozish, yangicha uslub va yondashuvlarni qo'llay oladi.
- 7.YN.6:** matn yaratish, uni taqdim etish, muloqot va hamkorlik maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalana oladi.

Tadqiqot natijalarini yetkazish

- 7.YN.7:** turli masalalarga munosabat bildirish maqsadida kichik hajmli tadqiqot o'tkazib, natijalarini yozma bayon qila oladi.
- 7.YN.8:** bir necha bosma hamda raqamli manbalardan tegishli ma'lumotlarni to'play oladi; har bir manbaning ishonchli ekanini baholay oladi; boshqalarning xulosa va ma'lumotlaridan iqtibos keltira oladi; plagiatga yo'l qo'ymaydi hamda manbalarning asosiy bibliografik ma'lumotlarini taqdim eta oladi.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

- 7.LK.1:** mustaqil, yordamchi va alohida so'z turkumlarini o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 7.LK.2:** olmoshlarning o'ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 7.LK.3:** mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaruvchi so'zlarning o'ziga xos belgilarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalanish
- 7.LK.4:** undov, taqlid va modal so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish
- 7.LK.5:** ismlarning lug'aviy va munosabat shakllarini farqlash, imlosini bilish va ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 7.LK.6:** tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega ekanligi, ularning chegaralash va ajratish vazifalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalana olish
- 7.LK.7:** tinish belgilarining umumiy ma'noga ta'sir qilish xususiyatlarini farqlay olish
- 7.LK.8:** gap tuzish va matn yaratishda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish
- 7.LK.9:** ona tilining boyish imkoniyatlarini bilish va nutq yaratishda ulardan foydalana olish
- 7.LK.10:** sintaktik birliklarni farqlash va ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 7.LK.11:** matn va uning turlarini farqlash; turli matnlarni yarata olish

VII SINF
(102 soat)

I BO'LIM. MEN, SEN, U VA ULAR
(8 soat)

IJTIMOIIY TARMOQLAR
(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: ijtimoiy tarmoqlar (telegram, facebook, twitter) haqida ma'lumot berish, ulardan foydalanish va muloqot odoblariga doir ko'nikmalarni hosil qilish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida fikrlarini argumentlar, daliliy tafsilotlar bilan izohlay oladi.

Og'zaki nutq: muhokama qilinayotgan mavzu, matn, masalaga tegishli bo'lgan izohlar berish orqali savollarga aniq va batafsil javoblar bera oladi, o'zi ham savollar bilan ishtirok eta oladi.

O'qib tushunish: matnda (shu jumladan, grafik, diagramma, jadval va boshqa shakllarda ma'lumotlar keltirilgan matnlarda ham) ochiq keltirilgan ma'lumotlarni topa oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu doirasida matn yoza oladi hamda matnni tegishli faktlar, ta'riflar, tafsilotlar, iqtiboslar yoki boshqa ma'lumot va misollar bilan boyita oladi.

Lingvistik bilim: olinma so'zlar imlosi; bog'lovchilar(sabab va maqsad bog'lovchilari).

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

ZAMONAMIZ QAHRAMONLARI
(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: zamon qahramoni kim, u qanday sifat va fazilatlarga ega ekani haqida mulohazaga chorlash, jamiyat uchun doim qahramonlar, liderlar zarur ekani haqida tushuncha berish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari fikrini tinglab,

munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: guruhdagi muhokamalarda oldindan kelishilgan shartlarga (navbat bilan so'zlash, vaqtga amal qilish, mavzudan chiqmaslik kabi) amal qila oladi.

O'qib tushunish: matndagi tanish so'zlarning kontekstual ma'nosini aniqlay oladi; matnda ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni topa oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu asosida esseni qoralama nusxasini tayyorlay oladi; yozgan esseni tahrir qilib, oqqa ko'chira oladi.

Lingvistik bilim: fe'llarning munosabat shakllari; zamon, shaxs-son qo'shimchalari; matn tuzilishi (kirish, asosiy qism, xulosa); fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush almashishi; tovush ortishi).

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

II BO'LIM. TABIAT NE'MATLARI

(10 soat)

TURON YO'LBARSI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Turon yo'lbarisi misolida O'zbekistonning qirilib ketgan va qizil kitobga kiritilgan hayvonlari haqida ma'lumot berish, tabiatni asrashga doir ko'nikmalarni shakllantirish.

Tinglab tushunish: audiomatn qismlarini rasm asosida izohlay oladi; tinglagan matnidan ochiq ifodalangan ma'lumotlarni topa oladi.

Og'zaki nutq: kerakli materialni oldindan o'qib, o'rganib, tayyorlangan holda muhokamalarda ishtirok eta oladi.

O'qib tushunish: berilgan matn qismlariga mos sarlavhalarni aniqlay oladi.

Yozma nutq: audiomatndan olgan xulosalari asosida matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: fe'llarning munosabat shakllarini aniqlash; matn tuzilishi(matn mazmuniga oid til birliklari); olmosh(belgilash olmoshi) haqida ma'lumot.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

QUTB YULDUZI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Qutb yulduzi va osmon jismlari, yulduzlarga qarab manzilni topish mumkinligi haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitish.

Tinglab tushunish: tengdoshining nutqini tinglab, munosabat bildiradi; yozgan matn haqida bildirilgan fikrlardan xulosa chiqaradi.

Og'zaki nutq: so'zlovchining maqsadi hamda argumentlarini ajrata oladi; dalillar keltirilgan hamda dalillanmagan maqsadlarni alohida ko'rsata oladi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqaradi; matnda yopiq holatda berilgan ma'lumotlarni (bir gap doirasida berilganda) ajrata oladi.

Yozma nutq: mavzuni o'rganish, g'oyalarni yetkazish, konsepsiya va ma'lumotlarni tanlash, tahlil qilish maqsadida axboriy, tasviriy hamda izohlovchi matnlarni yoza oladi.

Lingvistik bilim: atoqli otlar imlosi; uyushiq bo'laklar; vergul qo'llash; ijodiy matn tuzish.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

III BO'LIM. SOG' TANDA - SOG'LOM AQL

(9 soat)

C VITAMINI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: C vitamini, uni kashf qilinishi tarixi, salomatlik uchun ahamiyati, qanday mahsulotlarda borligi haqida ma'lumot berish, to'g'ri ovqatlanishga doir ko'nikmalar hosil qilish.

Tinglab tushunish: tinglagan fikrlaridan xulosa chiqaradi.

Og'zaki nutq: muhokama qilinayotgan mavzu, matn, masalaga tegishli bo'lgan izohlar berish orqali savollarga aniq va batafsil javoblar bera oladi, o'zi ham savollar bilan ishtirok eta oladi.

O'qib tushunish: matnda (shu jumladan, grafik, diagramma, jadval va boshqa shakllarda ma'lumotlar keltirilgan matnlarda ham) ochiq keltirilgan ma'lumotlarni topa oladi.

Yozma nutq: berilgan matn asosida yo'riqnoma matni tayyorlay oladi.

Lingvistik bilim: infografikani tushunish; miqdor va tartib sonlar; sifatlar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

KURASH – MILLIY SPORT TURI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: kurash – milliy sport turi, uning kelib chiqishi, o'ziga xos an'ana va qadriyatlari haqida ma'lumot berish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari bergan savollarni tushunib, javob bera oladi; mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlarga munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: grafik, diagramma, jadval va boshqa shakllarda keltirilgan ma'lumotlarni og'zaki bayon qila oladi.

O'qib tushunish: matndagi voqea-hodisalar (harakatlar, qadamlar) ketma-ketligini ajrata oladi; matnda yopiq holatda berilgan ma'lumotlarni (bir gap doirasida berilganda) ajrata oladi.

Yozma nutq: berilgan ko'rsatma asosida e'lon matni yoza oladi.

Lingvistik bilim: sifatlarning yasalishi; bog'lovchilar; dialog tuzish; murojaat birliklari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Nazorat ishi (1 soat)

IV BO'LIM. KASBIM – FAXRIM

(11 soat)

KELAJAK KASBLARI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchilarni yaqin 10-20 yildan keyin talabgir bo'ladigan kasblar bilan tanishtirish,

ularni kasb tanlashlarida ko'maklashish.

Tinglab tushunish: nutqiy mavzu asosida tinglagan fikrlaridan o'zi uchun kerakli xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: berilgan rasm asosida muhokamaga kirisha oladi; infografik ma'lumotlarni tushunib, munosabat bildiradi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarni rasm bilan bog'lay oladi; matnda ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni tushuna oladi.

Yozma nutq: berilgan mavzu asosida fikrlarini tartiblab, esse yoza oladi; berilgan matn asosida tabriknoma matni tayyorlay oladi.

Lingvistik bilim: yuklamalar va ularning gapdagi vazifasini aniqlash; fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari; bosh bo'laklar; ikkinchi darajali bo'laklar.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

VETERINAR

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: veterinari kasbi, uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish.

Tinglab tushunish: nutqiy mavzu asosida tinglagan fikrlaridan o'zi uchun kerakli xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: berilgan rasm asosida muhokamaga kirisha oladi; rasmlar asosida olgan xulosasini asoslab ayta oladi.

O'qib tushunish: matndagi tanish so'zlarning kontekstual ma'nosini aniqlay oladi; matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqara oladi.

Yozma nutq: mavzuni taqdim etadi; ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, sabab-oqibat strategiyalaridan foydalangan holda g'oyalar va tushunchalarni yetkazib bera oladi, tushunishga yordam berishi nuqtayi nazaridan qo'shimcha unsurlar (sarlavha, taglavha, grafik chizmalar)dan foydalana oladi.

Lingvistik bilim: belgilash olmoshlari; matn va lug'atlar ustida ishlash; taqlid so'zlar; fe'l zamonlari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat
Nazorat ishi va tahlili 2 soat

V BO'LIM. YOSH IQTISODCHI **(10 soat)**

MAQSADLI XARAJATLAR **(4 soat)**

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish, pulni to'g'ri sarflashga o'rgatish, xarajatlarini mustaqil nazorat qilishga o'rgatish.

Tinglab tushunish: tinglagan ma'lumotlarini aniqlashtiruvchi savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar bo'yicha turli shakldagi hamkorlikda samarali ishtirok eta oladi, boshqalarning fikrlariga asoslanib, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda eta oladi; jadval asosida fikrlarini tartiblab ayta oladi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqara oladi; matnda ochiq aytilmagan asosiy g'oyani aniqlay oladi.

Yozma nutq: berilgan vaziyat asosida fikrlarini tartiblab, esse yoza oladi.

Lingvistik bilim: hisob-o'lchov so'zlar; miqdor va tartib sonlar; sonlarning imlosi; munozara matni.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

BOBOMNING PENSIYASI **(4 soat)**

Nutqiy mavzuning g'oyasi: pensiya tizimi va uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot berish, o'quvchining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqini tinglab, munosabat bildiradi; o'ziga bildirilgan munosabatlardan xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: rasmda ifodalangan ma'lumotlarni ayta oladi.

O'qib tushunish: matn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni topa oladi; matnga tayangan

holda fikrlarini asoslay oladi.

Yozma nutq: rasm va ma'lumotlarni bog'lab, infografik ma'lumot yarata oladi; yo'riqnoma asosida taqdimot matni yarata oladi.

Lingvistik bilim: ravishlar imlosi, va ularning yasalishi; otlarning lug'aviy shakllari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat

Nazorat ishi 1 soat

VI BO'LIM. FAN VA TEXNOLOGIYALAR

(9 soat)

FIZIKA HAYOTNI YENGILLASHTIRADI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchiga tabiatdagi voqea-hodisalar fizik qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanini tushuntirish, shu bilan birga ularni ilm-fanga targ'ib qilish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqini tinglab, munosabat bildiradi; o'ziga bildirilgan munosabatlardan xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: nutqi davomida mos ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy til me'yorlariga amal qila oladi; auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rnatadi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tashkillay oladi; tegishli ta'rif, tavsif, fakt hamda tafsilotlardan foydalana oladi.

O'qib tushunish: nutqiy mavzu asosida keltirilgan ma'lumotlarni o'qib munosabat bildiradi; matndagi notanish so'zlar izohini lug'atdan topib izohlay oladi.

Yozma nutq: berilgan nutqiy vaziyatlarni hayotiy misollar bilan asoslab, matn ko'rinishida yoza oladi.

Lingvistik bilim: otlarning lug'aviy shakllari; tinish belgilari; lug'at bilan ishlash.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

ELEKTROMOBIL

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: zamonaviy elektromobillarning ichki yonuvchi dvigatelli avtomobillardan afzalliklari, ekologik bezararligi haqida ma'lumot berib, o'quvchilarni tabiatni asrashga targ'ib qilish.

Tinglab tushunish: audiomatndan ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni aniqlay oladi; tinglagan nutqiga munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: so'zlovchining maqsadi hamda argumentlarini ajrata oladi; dalillar keltirilgan hamda dalillanmagan maqsadlarni alohida ko'rsata oladi.

O'qib tushunish: matnning uslubi, tuzilishi va xususiyatlari (rasmlar tanlanishi, so'z va iboralar tanlanishi, grammatika va h.k.) matnning ma'nosiga qay darajada ta'sir qilishini izohlab bera oladi.

Yozma nutq: berilgan infografik ma'lumotlarni tasvirlab, matn ko'rinishida yoza oladi.

Lingvistik bilim: qisqartma so'zlar imlosi; qisqartma so'zlarni hosil qilish; kelishik shakllari; belgili va belgisiz qo'llanadigan kelishik shakllari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat

VII BO'LIM. TIL VA DIL (11 soat)

TUTILMAY GAPIRAMAN (4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchida ravon, tutilmay nutq so'zlash ko'nikmasini shakllantirish uchun turli tavsiyalar berish.

Tinglab tushunish: tinglagan audiomatnlarni taqqoslab, munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: matn mazmunini anglay oladi; so'zlovchi shaxsini o'zgartirgan holda qayta hikoya qila oladi; so'zlovchi shaxsi o'zgarganida egalik shaklida yuz beradigan o'zgarishni izohlay oladi.

O'qib tushunish: nutqiy mavzu doirasida berilgan matnlarni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodali o'qiy oladi; matnda ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni topa oladi; matndan

olgan xulosalari asosida audiomatn tayyorlay oladi.

Yozma nutq: og'zaki nutqni tinglab, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahrir qilib, xulosa yoza oladi.

Lingvistik bilim: talaffuz qoidalari; gap urg'usi; egalik shakllari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Nazorat ishi va tahlili 2 soat

YOZUVCHI BO'LISH OSONMI?

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: yozuvchilik kasbi, o'ziga xos qirralari haqida ma'lumot berib, o'quvchini badiiy matn yozishga yoki uni tushunishga o'rgatish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqini aniqlashtiruvchi savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: muhokama qilinayotgan mavzu, matn, masalaga tegishli bo'lgan izohlar berish orqali savollarga aniq va batafsil javoblar bera oladi, o'zi ham savollar bilan ishtirok eta oladi.

O'qib tushunish: matndagi voqea-hodisalar (harakatlar, qadamlar) ketma-ketligini ajrata oladi; matnning umumiy mazmunini tushuna oladi.

Yozma nutq: berilgan mavzu asosida ijodiy matn yoza oladi; nutqiy mavzu doirasida materialni tartiblab, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza oladi.

Lingvistik bilim: ko'chma ma'noli so'zlar, ibora; tasviriy ifoda; omonimlar.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat

VIII BO'LIM. TARIX XAZINALARI

(10 soat)

OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEY

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Xiva shahri va Ichan qal'a majmuasi haqida turli qiziqarli ma'lumotlar berib, o'quvchini O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tanishtirish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida o'z xulosasini yoza oladi.

Og'zaki nutq: so'zlovchining maqsadi hamda argumentlarini

ajrata oladi; dalillar keltirilgan hamda dalillanmagan maqsadlarni alohida ko'rsata oladi.

O'qib tushunish: matnda yopiq holatda berilgan ma'lumotlarni (bir gap doirasida berilganda) ajrata oladi; matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqara oladi.

Yozma nutq: matn asosida 3 ta savol tuzib yoza oladi; berilgan mavzu asosida so'rovnoma matni tayyorlay oladi; so'rovnoma natijalarini tahlil qilib, o'z xulosasini yoza oladi.

Lingvistik bilim: joy nomlari; ko'chirma gaplar imlosi; eskirgan so'zlar; tabdil; shevaga oid so'zlar; so'z yasalishi; tarjimayi hol.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

TEMIRYO'LLAR

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: temiryo'llar tarixi, uning taraqqiyotdagi o'rni, jamoat transportidan foydalanish odobi doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlarga munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: turli kontekst va vazifalarga mos nutq yarata oladi; nutqi davomida o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qiladi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarning aniq va to'g'riligi, yaroqliligi, xolis va ishonchliligiga baho bera oladi; matndagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda xulosalar chiqara oladi.

Yozma nutq: berilgan ma'lumotlar asosida xat tayyorlay oladi; tasviriyl matn (joy tasviri) yoza oladi.

Lingvistik bilim: joy nomlari; ko'chirma gaplar imlosi; eskirgan so'zlar; tabdil; shevaga oid so'zlar; so'z yasalishi; tarjimayi hol.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat

Nazorat ishi 1 soat

IX BO'LIM. SAN'AT VA MADANIYAT

(11 soat)

“BOBURNOMA” – MEMUAR ASAR

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Bobur siymosi va “Boburnoma” asarining tarixiy, madaniyl manba sifatidagi ahamiyati ochib berish,

memuar asar haqida tushuncha berish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqini tinglab, munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: nutqi davomida mos ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy til me'yorlariga amal qila oladi; auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rnatadi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tashkillay oladi; tegishli ta'rif, tavsif, fakt hamda tafsilotlardan foydalana oladi.

O'qib tushunish: matn qismlaridan xulosa chiqara oladi; matndan muallif maqsadini aniqlay oladi.

Yozma nutq: ko'rsatma asosida material to'plab, o'z tarjimai holini yoza oladi.

Lingvistik bilim: joy nomlari; ko'chirma gaplar imlosi; eskirgan so'zlar; tabdil; shevaga oid so'zlar; so'z yasalishi; tarjimai hol.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

“SHARQ TARONALARI” XALQARO MUSIQA FESTIVALI (4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: xalqaro “Sharq taronalari” festivalining tarixi, madaniy ahamiyati, an'analari haqida ma'lumot berish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarga munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: rasm asosida savollarga javob bera oladi; turli kontekst va vazifalarga mos nutq yarata oladi; nutqi davomida o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qiladi.

O'qib tushunish: matn qismlaridan xulosa chiqara oladi; matn qismlarini bog'lab, yaxlit xulosasini ayta oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu doirasida 120 – 180 ta so'zdan iborat esse yoza oladi.

Lingvistik bilim: gap bo'laklari; ko'p nuqta.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash 1 soat

Nazorat ishi va tahlili 2 soat

X BO'LIM. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ (8 soat)

OLIIY MAJLIS

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: davlat boshqaruv tizimi, bu tizimda parlamentning o'рни va vazifasi haqida ma'lumot berish, o'quvchining siyosiy savodxonligini oshirish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqidan uslublarni farqlay oladi; rasmiy uslubga xos birliklarni aniqlay oladi.

Og'zaki nutq: so'zlovchining maqsadi hamda argumentlarini ajrata oladi; dalillar keltirilgan hamda dalillanmagan maqsadlarni alohida ko'rsata oladi.

O'qib tushunish: matndan ko'zlangan maqsadni anglay oladi; matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini aniqlay oladi.

Yozma nutq: jadval asosida matn yoza oladi; nutqiy mavzu asosida e'lon matni yoza oladi.

Lingvistik bilim: nuqtali vergul; rasmiy uslub.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

MUALLIFLIK HUQUQI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: mualliflik huquqlari haqida ma'lumot berish, ko'chirmachilik illatining ijtimoiy-madaniy hayotimizga yetkazayotgan zararlari o'quvchilarga yetkazish.

Tinglab tushunish: tinglagan matni asosida savollarga asosli javob bera oladi.

Og'zaki nutq: o'z fikrlarini va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab ayta oladi; nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay oladi.

O'qib tushunish: matnda yopiq holatda berilgan ma'lumotlarni (bir gap doirasida berilganda) ajrata oladi.

Yozma nutq: berilgan nutqiy mavzu asosida bayon yoza oladi.

Lingvistik bilim: huquqiy atamalarni tushunish; gap tuzish; fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

XI BO'LIM. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(5 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkazish. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshirish.

Tinglab tushunish va og'zaki nutq: sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar bo'yicha turli shakldagi hamkorliklarni boshlay oladi hamda ularda samarali ishtirok eta oladi, boshqalarning fikrlariga asoslanib, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda eta oladi; so'zlovchining nuqtayi nazarni, mulohazani isbotlashda ritorikadan qanday foydalanayotganini, nutq davomida so'z tanlash, ohang tanlash, urg'u ishlatishini baholay oladi; ma'ruzachining argument va dalillarini tushuna oladi.

O'qib tushunish: muallif o'zining maqsadi hamda nuqtayi nazarini qanday usulda yetkazayotgani va bundan matnning xususiyatlaridan qanday foydalanganini baholay oladi; matnda ochiq aytilmagan ikki yoki undan ortiq g'oyani aniqlaydi, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi hamda muallifning maqsadini matn ma'lumotlariga tayangan holda tushuntirib bera oladi.

Yozma nutq: auditoriya, maqsad, uslubni hisobga olgan holda turli shakllardagi (axboriy, tasviriy, ekspozitsion, argumentli, badiiy) matnlarni yarata oladi.

Lingvistik bilim: yil davomida o'rganilgan lingvistik bilimlarni takrorlash, matnlarni qisqartirish va kengaytirish.

Lug'at boyligi: yil davomida o'rganilgan so'z va iboralar.

Nazorati ishi 1 soat